

# O'zbekistonda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etilishi va rivojlanishi

Xotamjon Abdulkarimovich Qobulov  
Zarnigor Komol qizi Murtozayeva  
Toshkent moliya instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqligini va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri, ya'ni tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokining ta'minlash maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etilishi va rivojlanishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet tizimi, Tashabbusli byudjet, islohotlar, jamoatchilik nazorati, loyihalar

## Implementation and development of a system for financing projects formed based on public opinion in Uzbekistan

Khotamjon Abdulkarimovich Kobulov  
Zarnigor Komol kizi Murtozaeva  
Tashkent Institute of Finance

**Abstract:** This article examines one of the priority areas of reforms implemented in recent years to ensure openness and transparency of the budget system in our country, that is, the introduction and development of a project financing system in order to ensure the active participation of citizens in determining the directions of local budget expenditures in the corresponding region formed on the basis of public opinion.

**Keywords:** budget system, initiative budget, reforms, public control, projects

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish doirasida iqtisodiy va moliyaviy statistika ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va byudjet jarayoni ochiqligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqligi va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlanishidir.

Mahalliy byudjet xarajatlarini moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash mahalliy ijroiya va vakillik organlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Odatda, ushbu masalalar bilan byudjet jarayonida ishtirok etuvchi turli vakolatli organlar shug'ullanadilar. Ammo, mahalliy ijroiya va vakillik organlari e'tiboridan chetda qoladigan muammolar ham mavjud. Ma'lumki, fuqarolar o'z yashash joylari (mahalla, tuman, shahar)dagi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yaxshi bilishadi va fuqarolar tomonidan taklif etilgan loyihalar aksariyat hollarda asosli hisoblanadi. Chunki, ma'lum bir joyda uzoq vaqt yashayotgan fuqarogina birinchi navbatda qanday masalalarni hal qilish kerakligini ajrata oladi.

Bundan tashqari, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish bugungi byudjetni dasturiy amalga oshirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan maqsad – byudjet samaradorligini oshirish bo'lib, oxir oqibatda xalq farovonligini oshirish va unga xizmat qilishdir.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh etish jarayonida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda bu jarayon byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son Qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.<sup>1</sup>

Mazkur Qarorga muvofiq, 2019-yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etildi.

Shuningdek, ushbu Qaror bilan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, davlat byudjeti

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi F-5024-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 33-son, 847-modda

va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi tasdiqlandi.

Yuqoridagi Qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy byudjetlar parametrlari va ijrosi haqidagi hisobotlarning ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi jarayonining ommaviy axborot vositalarida har tomonlama yoritish hamda tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlari qo'shimcha manbalaridan kamida 10 foizining Portal orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish majburiyati yuklandi.<sup>2</sup>

Bundan tashqari 2018-yildan boshlab jamoatchilik ixtiyoriga "Fuqarolar uchun byudjet" axborot nashri ham taqdim etib kelinmoqda.

2019-yilning 1-yanvaridan boshlab jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun tuman (shahar)lar byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilish taklif etilayotgan tadbirlar to'g'risidagi axborotni joylashtirishni nazarda tutadigan "Ochiq byudjet" axborot portali (<https://openbudget.uz/>) ishga tushirildi.

Keyin esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 4-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish jarayonining qanday tartibda olib borilishi belgilab berildi. Shu bilan birgalikda, tuman (shahar) byudjetlarining tegishli mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish uchun tuman (shahar) hokimliklarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari shaklidagi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" tashkil etildi. Bunga ko'ra g'olib deb topilgan har bir tadbir uchun alohida mablag'lar manbasi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" bo'lgan shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochiladi va barcha xarajatlar ushbu g'azna hisobvarag'i orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimidagi loyihalariga keladigan bo'lsak bulardan eng birinchisi bu fuqarolar ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" loyihasi hisoblanadi. Tashabbusli byudjet fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishidir. "Tashabbusli byudjet" loyihasi yurtimizda 2021-yildan buyon yilda ikki marotaba o'tkazilib kelinmoqda.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.08.2018-y., 07/18/3917/1792-son

1-jadval.

**Tashabbusli byudjet jarayonining 2023-yil 2-mavsumi doirasida kelib tushgan loyihalar<sup>3</sup>**

Hudud nomi	Ajratilgan mablag' (mlrd. so'm)	G'olib loyihalar soni	G'olib loyihalar summasi (mlrd. so'm)	G'olib loyihalar to'plagan ovozlar soni (mingta)	Qanoatlanish darajasi (%)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	970,71	92	904,52	279,68	47
Andijon viloyati	1120,30	83	1000,40	625,06	38
Buxoro viloyati	876,76	74	806,15	354,32	36
Jizzax viloyati	637,62	50	601,46	225,55	35
Qashqadaryo viloyati	1352,80	100	1254,35	930,44	41
Navoiy viloyati	602,70	58	548,70	169,17	33
Namangan viloyati	1056,50	84	1002,26	410,45	27
Samarqand viloyati	1429,77	113	1327,11	769,92	37
Surxondaryo viloyati	1073,06	76	963,59	467,39	27
Sirdaryo viloyati	421,26	73	397,02	154,78	44
Toshkent viloyati	1321,76	128	1264,76	462,26	42
Farg'ona viloyati	1337,92	97	1223,81	677,12	24
Xorazm viloyati	862,07	66	813,81	409,72	37
Toshkent shaxri	1180,51	98	1084,72	365,50	41

2023-yil birinchi mavsum doirasida o'tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida qiymati 1,5 trillion so'm bo'lgan 1 666 ta loyiha g'olib deb topildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-sonli Qaroriga muvofiq esa Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil birinchi mavsum doirasida o'tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib deb topilmagan 1 309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha ravishda 1,3 trln so'm mablag' ajratildi. Bunga ko'ra qo'shimcha ajratilayotgan mablag' 2023-yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida rejalashtirilgan mablag'lar hisobidan yo'naltirildi.

Ikkinchi loyiha "Mening yo'lim" bo'lib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 fevraldagi "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 49-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan byudjet mablag'larini sarflanishida fuqarolar ishtirokini yanada oshirish va yurativdagi mavjud ichki yo'llar sifatini yaxshilash maqsadida 2022 yildan boshlab tuman va shaharlar byudjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi «Ochiq byudjet»

<sup>3</sup> www.openbudget.uz (O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portali) ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu tizim "Tashabbusli byudjet" jarayonlaridan farqli o'laroq bir yilda bir marotaba o'tkaziladi.<sup>4</sup>

"Mening yo'lim" loyihasining 2023-yilgi mavsumiga ovoz berish yakunlandi. Jami 517 ta loyiha g'olib deb topildi, endi ularga 412 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi. Loyiha tuman (shahar) budjetlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun rejalashtirilgan mablag'larning kamida 50 foiz qismini fuqarolar fikri asosida yo'naltirilishni ta'minlash maqsadida tashkil etilgandi. Ushbu mavsum uchun respublika bo'yicha 10317 ta tashabbusli taklif kelib tushgan. Shundan, 27-apreldan 7-may kuniga qadar davom etgan ovoz berish jarayoni natijalariga ko'ra, 517 ta loyiha g'olib deb topildi. Ovoz berish jarayonida respublika bo'yicha 8 million 93 ming 918 nafar fuqaro ishtirok etdi.<sup>5</sup>

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ushbu jarayonlarda eng ko'p g'olib loyihalar quyidagi hududlar hissasiga to'g'ri keladi:<sup>6</sup>

- Toshkent viloyati (55 ta);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi (54 ta);
- Samarqand viloyati (40 ta);
- Andijon viloyati (40 ta).

G'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika bo'yicha 412 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan.<sup>7</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh etish jarayonida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.08.2018-y., 07/18/3917/1792-son

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 4-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli Qarori // 5 va 6-ilovalar O'zbekiston

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 49-sonli Qarori // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 03.02.2022-y., 09/22/49/0091-son; 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son

<sup>5</sup> Manba: <https://www.gazeta.uz/oz/> - ("Mening yo'lim" loyihasi g'oliblari e'lon qilindi.)

<sup>6</sup> Manba: <https://uza.uz/> -(O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti)

<sup>7</sup> Manba: [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portali)



Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 20-sentabrdagi KQ-406-IV-sonli Qaroriga asosan kiritilgan

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi “Avtomobil yo‘llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 49-sonli Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 09/22/49/0091-son; 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.10.2022-y., 07/22/409/0956-son; 11.04.2023-y., 07/23/117/0207-son

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.04.2023-y., 07/23/117/0207-son

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son

8. Kobulov, K. (2020). ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ ПУТЕМ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА. Архив научных исследований, 35.

9. Kobulov, K., Jalilov, S., Sultonov, S., & Soatova, N. (2020). Modeling the processes of forming a strategy for the revenue potential of local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1210-1216.

10. Milan – Participatory Budgeting. Collaborative Cities. [https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/monitors/index/monitoraggio-dei-progetti#contexts\\_2](https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/monitors/index/monitoraggio-dei-progetti#contexts_2)

11. Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах / Под общей ред. Шульги И.Е. – М.: «Алекс», 2020 – 106 с.

12. Yomg, J. A. O. G. L., & Qobulov, X. A. (2022). Mahalliy byudjetlar moliyaviy barorligini ta‘minlash yo‘llari. Science and Education, 3(1), 1123-1128.

13. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali)

14. <https://uza.uz/> -(O‘zbekiston milliy axborot agentligi sayti)